



**ANALYSIS OF DRUGS USED FOR GALLBLADDER
DISEASES IN THE PHARMACEUTICAL MARKET OF
UZBEKISTAN**

Kh. M. Yunusova

N. U. Valizhonova

N.B. Ilkhamova

F. J. Anvarova

Tashkent Pharmaceutical Institute, Tashkent, Republic of Uzbekistan

valijonovanazokatxon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19061534>

ARTICLE INFO

Received: 09th March 2026

Accepted: 16th March 2026

Online: 17th March 2026

KEYWORDS

Choleretic agents
(choleretic drugs), sales
volume, domestic
production,
pharmaceutical market.

ABSTRACT

This article presents an analysis of drugs used for gallbladder diseases in the local pharmaceutical market. The study utilizes data registered in 2023-2025 based on the State Register of the Republic of Uzbekistan. The obtained data demonstrate the need to expand the range of these types of drugs in domestic production.

**АНАЛИЗ ПРЕПАРАТОВ, ПРИМЕНЯЕМЫХ ПРИ ЗАБОЛЕВАНИЯХ
ЖЕЛЧНОГО ПУЗЫРЯ НА ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОМ РЫНКЕ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

Х.М. Юнусова

Н.У. Валижонова

Н.Б. Илхамова

Ф.Ж. Анварова

Ташкентский фармацевтический институт, Ташкент, Республика Узбекистан

valijonovanazokatxon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19061534>

ARTICLE INFO

Received: 09th March 2026

Accepted: 16th March 2026

Online: 17th March 2026

KEYWORDS

Желчегонные средства
(холеретические
препараты), объем
продаж, отечественное
производство,
фармацевтический
рынок.

ABSTRACT

В данной статье представлен анализ препаратов, используемых при заболеваниях желчного пузыря на местном фармацевтическом рынке. В исследованиях использованы данные, зарегистрированные в 2023-2025 годах на основе Государственного реестра Республики Узбекистан. Полученные показатели свидетельствуют о необходимости увеличения ассортимента данных видов лекарственных средств в отечественном производстве.

**O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARMATSEVTIKA BOZORIDAGI O'T
PUFAK KASALLIKLARIDA QO'LLANILADIGAN PREPARATLAR TAHLILI**

X.M. Yunusova



N.U. Valijonova

N.B. Ilxamova

F.J. Anvarova

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

valijonovanazokatxon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19061534>

ARTICLE INFO

Received: 09th March 2026

Accepted: 16th March 2026

Online: 17th March 2026

KEYWORDS

*O't haydovchi vositalar
(xoleretik preparatlar)
savdo hajmi, mahalliy
ishlab chiqarish,
farmasevtika bozori.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada mahalliy farmasevtika bozoridagi o't pufak kasalliklarida qo'llaniladigan preparatlar tahlili keltirildi. Tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasida Davlat reestri asosidagi 2023-2025 yillarda qayd etilgan ma'lumotlardan foydalanildi. Olingan ko'rsatkichlar mahalliy ishlab chiqarishda ushbu dori turlari assortimentini oshirish kerakligini ko'rsatdi.

Dolzarbliqi. So'ngi yillarda aholi o'rtasida keng tarqalayotgan kasalliklaridan ovqat hazm qilish tizimiga oid patologiyalarning katta qismini o't pufagi va o't yo'llari kasalliklari tashkil etadi. Surunkali xoletsistit va o't-tosh kasalligi kabi organik kasalliklardan tashqari, ularga tonus va motorika buzilishlarini o'z ichiga oluvchi funksional buzilishlarni ham kiritishimiz mumkin [1,2].

O't pufagi toshlar kasalliklari keng tarqalgan va tez-tez uchraydigan kasallik bo'lib qolmoqda. Xozirgi kunda dunyo aholising 6% bu kasallikka uchraganligini ko'rishimiz mumkin va ularning uchrash tezligi har yili ortib bormoqda. O't pufagi toshlari (gallstones) dunyo bo'yicha tarqalishi hudud va iqtisodiy holatga qarab farq qiladi: Janubiy Amerikada (11,2%) va kam daromadli mamlakatlarda (8,9%) yuqori bo'lsa, Osiyoda (5,1%) va yuqori daromadli mamlakatlarda (4%) pastroqdir [3,4,5].

Ularning paydo bo'lish holatlari yosh ortishi bilan ortadi, 70 yoshgacha

bo'lgan kattalarda 13% holatda uchraydi, shuningdek jinsga bog'liq farq mavjud bo'lib, ayollarda 7,6%, erkaklarda esa 5,4% hollarda kuzatiladi [6].

So'ngi yillarda aholi o'rtasida tabora keng tarqalayotgan kasalliklardan biri o't pufagi va o't yo'llari, oshqozon - ichak tizimi faoliyati bilan bog'liq kasalliklaridir. Farmasevtik bozorining potensialini belgilovchi marketing ko'rsatkich bu - dori vositasining assortimenti bo'lib, Respublikamizda farmasevtika bozoridagi ushbu farmakologik guruhga oid dori vositalari nomeklaturasi barqaror o'sib bormoqda [6].

Tadqiqotning maqsadi.

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan o't pufagi kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan dori vositalarining 2024-2026 yillardagi holati, ishlab chiqaruvchilar ulushi hamda assortimentini tahlil qilish deb belgilandi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot uchun 2023-2025 yillar davomidagi




Davlat Reestri ma'lumotlari asos sifatida olindi [7,8,9]

Mahalliy farmasevtik bozordagi o't pufak kasalliklarida qo'llaniladigan dori preparatlari tahlili O'zbekiston Respublikasining 2023 yil uchun 28-son, 2024- yil 29- son va 2025- yil uchun 30 - son "O'zbekiston Respublikasi ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestri asosida olib borildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari 1-rasmda keltirilgan bo'lib,

olingan natijalar yildan yilga ushbu farmakologik guruhga mansub dori preparatlarining qadog'i kamayib borgan. So'nggi ikki yil ichida 8225 va 7841 qadoq sonini ko'rsatib 2023 yilga nisbatan 2024 yilda 22% qadoqning kamaygani va 2025 yilda esa 2024-yilga qaraganda 5% ga yaqin kamaygan. Bu ko'rsatkichlar o'z navbatida kasallikning ortib borayotgani va ushbu kasalliklarni davolashda yangi preparatlar texnologiyasini ishlab chiqarish lozimligini ko'rsatayapti.



1-rasm. Mahalliy farmasevtika bozorida 2023-2025 yillardagi o't haydovchi preparatlar holati

Ikkinchi bosqich tadqiqotlarda ushbu preparatlarning ishlab chiqaruvchi davlatlar ulushi o'rganildi.

Olingan natijalar 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Mahalliy farmasevtika bozorida 2023-2025 yillardagi o't haydovchi preparatlarni ishlab chiqaruvchi davlatlar ulushini o'rganish natijalari

Yillar	Ishlab chiqaruvchi davlatlar					
	O'zbekiston		MDH		Horijiy	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%
2023	4	28,53	6	37,70	5	34,22
2024	4	29,05	5	37,62	3	33,33
2025	5	33,55	3	29,99	4	36,46

1-jadvalda keltirilgan natijalardan ko'rinib turibdiki, mahalliy farmasevtik bozoridagi O't pufagi kasalliklarini

davolash uchun qo'llaniladigan dori vositalarining ishlab chiqaruvchilari



asosan MDH hamda horijiy davlatlarga to'g'ri kelayapti.

Keyingi bosqich tadqiqotlarda o't pufagi kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladigan dori

vositalarining assortiment tahlili o'tkazildi. Tadqiqot natijalari so'nggi yillarda ushbu farmakologik guruhga 14 nomdagi dori preparatlari respublikamizda qayd etilganligini ko'rsatdi. Ulardan 11 nomda (77%) dori vositalari horijiy va MDH davlatdori ishlab chiqaruvchi korxonalari ulushiga, hamda 3 nomda mahalliy (23,%) dori

vositalari mahalliy ishlab chiqarishuvchilar ulushiga to'g'ri kelgani tadqiqot natijalaridan aks etdi.

O't pufagi kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan dori vositalarining assortimentini o'rganish natijalari 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasi Dori vositalari va tibbiy buyumlarining davlat reestrda ro'yhatdan o't pufagi kasalliklari assortiment tahlili natijalari


Dori shakli	2023 - yil	2024 - yil	2025 - yil
In'eksion eritmalar	0	5	37
Tabletkalar	2	5	11
Infuzion eritmalar	0	1	7
Kapsula	1	5	10
Shamcha	0	1	0
Sirop	0	0	1
Ekstrakt	0	0	0
Eritma	0	0	1
Jami	3	16	67

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o't pufagi kasalliklarini davolovchi preparatlarning aksariyat qismini in'eyosion dori turlari tashkil qiladi. Keyingi o'rinda tabletkalar va ulardan keyin kapsula dori turlari ekanligi tahlil natijalarida ko'rindi. Shuningdek, keltirilgan ko'rsatkichlar tadqiqot yillarida qayd qilingan o't pufagi kasalliklarini davolovchi preparatlar sonining yildan-yilga o'zgarib borganligini ko'rsatdi. 2025 yilga kelib ushbu preparatlar miqdori oldingi yillardagidan ko'p bo'lib, asosan yana in'eksion preparatlar soni ortganligi kuzatildi.

O't pufagi kasalliklarini davolovchi preparatlar ishlab chiqarishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ulushini o'rganish bilan tadqiqotlar davom ettirildi.

Olingan natijalar 3-rasmda keltirildi.


3-rasmdan ko'rinib turibdiki, yetakchi mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar ichida ROMPHARM NS QK 2025-yilda 7 ta nomda o't pufagi kasalliklarini davolovchi preparatlar ishlab chiqarib birinchi o'rinni egallayotgani tadqiqotlarda kuzatildi. Qolgan yetakchi mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar deyarli bir xilda 1-4 ta nomdagi preparatlar ishlab chiqarayotganligi ko'rinib turibdiki.



3-rasm. O't pufagi kasaliklarini davolovchi preparatlar ishlab chiqarishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ulushini

o'rganish natijalari

Ushbu bosqich tadqiqotlar o't pufagi kasaliklarini davolovchi preparatlar ishlab chiqarishda davlatlar ulushini o'rganish bilan davom ettirildi.



2-rasm. O't pufagi kasaliklarini davolovchi preparatlar ishlab chiqarishda davlatlar ulushini o'rganish natijalari

Tahlil natijasiga ko'ra, 21,13% - mahalliy ishlab chiqaruvchilar, 50,46% - MDH davlatlari, 28,41% shu guruh preparatlarini ishlab chiqarishi kuzatildi.

Xulosa. 2023–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat reestrda ro'yxatdan o'tgan o't haydovchi

preparatlarning bugungi kundagi holati mahalliy farmasevtik bozorni asosan import evaziga ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, o't haydovchi preparatlarning assortimentini o'rganish asosida import o'rnini bosuvchi inovatsion preparatlar texnologiyasini ishlab chiqish hamda ularni mahalliy farmasevtik ishlab chiqarish korxonalariga transfer qilish masalalari dolzarb ekanligi aniqlandi.



References:

1. Umarova G, Karimov A, Tursunov M. Development of the pharmaceutical industry in Uzbekistan: Current status and prospects. *Central Asian Medical Journal*. 2024;6(4):102–110.
2. World Health Organization. *Global status report on mental health 2023*. Geneva: WHO; 2023. 124 p.
3. Ravshanova S.E., Yunusova X.M. O'zbekiston Respublikasi farmasevtika bozorida metamizol natriy asosidagi kombinirlangan preparatlar tahlili // Farmasevticheskiy Vestnik Uzbekistana.-Tashkent.-2019.-№2.-S.25-30.
4. Yunusova.X.M., Abdijalilova Z.X., Ilxamova N.B. Mahalliy farmasevtik bozorda yo'talga qarshi dori preparatlarining ishlab chiqaruvchilarni tahlili // Farmasevtika jurnali.- Toshkent-2020.-№ 3.-B.8-11. Jaloliddinova M.Sh., Yunusova X.M. // Mahalliy farmasevtika bozoridagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori vositalari assortimentining tahlili // O'zbekiston farmasevtik xabarnomasi.-Toshkent.-2019.-№1.-B.5-8.
5. X.M.Yunusova, K.N.Xakimova. Sostoyanie preparatov serukala v Res-publike Uzbekistan i perspektivy ix proizvodstva. Sb.mater. IV mejd.zaachnoy nauch.-prakt.konf. «Nauchnaya diskussiya: innovatsii v sovremennom mire».Ch-II-Moskva, 2012.
6. Ilxamova N.B.,Djalilov X.K. Marketingovoe izuchenie protivoglistnykh preparatov i perspektivy ix proizvodstva v Respublike Uzbekistan// Aktualnye problemy sovremennoy nauki i puti ix resheniya. Yevraziyskiy soyuz uchenykh (YeSU).- 2016. - №1(22).-str.163-167
7. Ilxamova N.B., Yunusova X.M., Tashmatova M.A. O'zbekiston Respublikasi farmasevtika bozoridagi diabetga qarshi preparatlarning tahlili // O'zbekiston Farmasevtik xabarnomasi.-2022.-№4.-B.22-25
8. Turdieva Z.V., Yunusova X.M. O'zbekiston Respublikasi farmasevtika bozoridagi sedativ dori vositalarining tahlili //O'zbekiston farmasevtika xabarnomasi.-2022. -№3.-B.22-25